

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI I, II, III

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar

Ta'lism sohasi: 230 000 – Tillar

Ta'lism yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish:  
o'zbek tili

Guliston – 2024

<b>Fanning nomi</b>	O‘zbek adabiyoti tarixi
<b>Fan/modul kodi</b>	O‘AT12-415
<b>Fan/modul turi</b>	Majburiy
<b>O‘quv yili</b>	2024/2025
<b>Fan semestri</b>	2,3,4
<b>Ta’lim tili/turi</b>	O‘zbek/kunduzgi
<b>Fanga ajratilgan soat/kredit</b>	450/15
<b>Auditoriya soat/kredit</b>	180/6
<b>Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soat/kredit</b>	270/9

### I. Fanning mazmuni

**1.1. Fanni o‘qitishdan maqsad** – o‘zbek adabiyoti tarixi va mumtoz poetika bilan bog‘liq boy adabiy va ilmiy meros bilan filolog talabalarni tanishtirish, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lom e’tiqod va yuksak axloq sohibi bo‘lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma’naviy xazinani tom ma’noda qadrlashga o‘rgatish orqali ularni bilimli va keng ma’rifat sohibi etib tarbiyalashdir.

**1.2. Fanning vazifasi** – Talabalarda mumtoz adabiyot tushunchasi, mumtoz poetika, mumtoz ijodkorlarning hayot yo‘li va faoliyati, ularning millat va jahon madaniyati rivojiga qo‘sghan hissasi, o‘zbek davlatchiligi va ma’naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida bilim hosil qilish, mumtoz adabiyot bilan bog‘liq tushunchalar va tamoyillar, mumtoz poetika asoslari: ilmlar uchligi, mumtoz asarlarning mazmun-mohiyati, majoz tariqidagi yozilgan she’rlarda ilmiy diniy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy asar stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, mumtoz asarlar tili, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarning o‘ziga xos jihatlari, ma’no qatlamlari, ushbu asarlarning o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri haqida bilim hosil qilishdan iborat.

### II. ASOSIY NAZARIY QISM

(Ma’ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta’lim mavzulari)

#### II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

Nº	Modul nomi	Ma’ruza mashg‘ulotida ko‘riladigan mavzular	Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha mavzulari	Seminar mashg‘uloti bo‘yicha mavzular	Mustaqil ta’lim va mustaqil ish mavzulari
1.	<b>1-mavzu.</b> Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari	Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari	Qadimgi mif va afsonalar.	Mumtoz adabiyot tushunchasi; Sharq xalqlari mumtoz adabiyotida mushtaraklik va mumtoz adabiyotni davrlashtirish.	Odamning yaratilishi, olamning yaratilishi haqidagi miflarni va “Oltun yorug” asarini o‘qish
2.	<b>2-mavzu.</b> Islomgacha bo‘lgan davr adabiyoti. Uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklar va “Oltun yorug” asari	Islomgacha bo‘lgan davr adabiyoti. Uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklar va “Oltun yorug” asari	“Kultegin”, “Bilga xoqon” va “To‘nyuquq” yodgorliklari badiiyati. “O‘g‘uznom” kitobiy episodidagi afsona va rivoyatlar	“Xuastuanift” asarining o‘ziga xos xususiyatlari. “Oltun yorug” asarning turkiy xalqlar ma’naviy hayotidagi o‘rni.	“To‘maris”, “Shiroq” afsonalarini va “Irq bitigi”, “Xuastuanift” asarini o‘qish.
3.	<b>3-mavzu.</b> G‘aznaviyilar va qoraxoniylar davri adabiyoti	G‘aznaviyilar va qoraxoniylar davri adabiyoti	Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida tahlili	Ibn Sinoning “Hayy bin Yaqzon” qissasida obrazlari	Ibn Sinoning “Hayy bin Yaqzon” qissasi va Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan

					xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini o‘qish
4.	<b>4-mavzu.</b> Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari	Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari	“Hibat ul-haqoyiq” asarining adabiy-badiiy xususiyati.	“Devonu lug‘oti-t-turk” dagi adabiy parchalar mavzu va janr xususiyatlari	“Hibat ul-haqoyiq” va “Devonu lug‘oti-t-turk” asarlarini o‘qish
5.	<b>5-mavzu.</b> Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari	Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari	“Qutadg‘u bilig” adabiy-badiiy asar.	“Qutadg‘u bilig” dostoni janrlari: masnaviy, qasida, to‘rtlik unsurlari	“Qutadg‘u bilig” asarini o‘qish. “Devonu lug‘oti-t-turk” dagi “Oltin qon” afsonasini o‘qish
6.	<b>6-mavzu.</b> Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oni yahoti va ijodining manbalari	Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oni yahoti va ijodining manbalari	Ahamad Yassaviy ijodi va tasavvuf adabiyoti.	Sulaymon Boqirg‘oniy ijodi.	Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan yod olish. Sulaymon Boqirg‘oniyning “Bibi Maryam” qissasini o‘qish
7.	<b>7-mavzu.</b> XIII-XV asrlar adabiyoti. Oltin O‘rda o‘zbek adabiyoti. Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi	XIII-XV asrlar adabiyoti. Oltin O‘rda o‘zbek adabiyoti. Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi	Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari.	Mahmud Ali ibn-as-Saroyining “Nahj ul-farodis” asari badiiyati.	Nosiriddin Rabg‘uziyning “Kun hamalga kirdi...” g‘azalini yod olish. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarini va Mahmud Ali ibn-as-Saroyining “Nahj ul-farodis” asarlarini o‘qish
8.	<b>8-mavzu.</b> Sayfi Saroyi ijodi. “Gulistoni bit-turkiy” asari	Sayfi Saroyi ijodi. “Gulistoni bit-turkiy” asari	“Gulistoni bit-turkiy” asari tahlili	“Suhayl va Guldursun” asarida muhabbat va erk masalasi	Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” va “Suhayl va Guldursun” asarini o‘qish
9.	<b>9-mavzu.</b> Qutbning “Xusrav va Shirin” asari. “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar	Qutbning “Xusrav va Shirin” asari. “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar	“Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar tahlili.	Qutbning “Xusrav va Shirin” asari tasavvufiy-irfoniy asarlar silsilasi.	Qutbning “Xusrav va Shirin” va Durbekning “Yusuf va Zulayxo” asarlarini o‘qish
10.	<b>10-mavzu.</b> O‘zbek adabiyotida noma janri	O‘zbek adabiyotida noma janri	“Muhabbatnama”, “Dahnama” asarlari tahlili	“Taashshuqnama” va “Latofatnama” asarlariga xos xususiyatlar	“Muhabbatnama” dan uchinchil nomani yod olish. “Muhabbatnama”, “Latofatnama”, “Taashshuqnama”,

					“Dahnoma” asarlarini o‘qish
11.	<b>11-mavzu.</b> Temuriylar davri adabiyoti. O‘zbek adabiyotida munozara janri	Temuriylar davri adabiyoti. O‘zbek adabiyotida munozara janri	Amiriyning “Chog‘ir va Bang” munozarasi. Yaqiniyning “O‘q va yoy” munozarasi.	Sayyid Qosimiy – dostonnavis	“O‘q va yoy”, “Chog‘ir va bang”, Husayniyning “Risola” asarini o‘qish
12.	<b>12-mavzu.</b> Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi	Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi	“Gul va Navro‘z” – muhabbat dostoni.	“Gulshani asrор” – falsafiy doston.	Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asrор”, “Gul va Navro‘z” asarlarini o‘qish
13.	<b>13-mavzu.</b> Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodi	Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodi	Hofiz Xorazmiy lirikasi.	Hofiz Xorazmiy – qasidanavis	Hofiz Xorazmiy g‘azallaridan yod olish
14.	<b>14-mavzu.</b> Atoyi va Sakkokiy ijodi	Atoyi va Sakkokiy ijodi	Atoyi – g’azalnavis	Sakkokiy lirikasi	Atoyi, Sakkokiy g‘azallaridan yod olish
15.	<b>15-mavzu</b> Gadoiy va Lutfiy ijodi	Gadoiy va Lutfiy ijodi	Lutfiy lirikasi	Gadoiy she’riyati	Gadoiy va Lutfiy g‘azallaridan namunalar yod olish
16.	<b>16-mavzu</b> Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va adabiy merosi	Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va adabiy merosi	Boburning lirikasi	“Boburnoma” o‘zbek adabiyotidagi ilk memuar asar sifatida	““Boburnoma”, Voldiya” va “Mubayyin” asarlarini o‘qish. Bobur g‘azallaridan yod olish.
17.	<b>17-mavzu</b> Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari	Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari	Muhammad Solih – dostonnavis.	Qul Ubaydiy lirikasi. Xoja – hikoyanavis	“Shaybonynoma”, “Gulzor” va “Miftoh ul-adl” asarlarini o‘qish
18.	<b>18-mavzu</b> Turdi, Mashrab va So‘fi Olloyor ijodiy merosi	Turdi, Mashrab va So‘fi Olloyor ijodiy merosi	Mashrab lirikasi. So‘fi Olloyor adabiy merosi.	Turdi she’rlarining janr xususiyatlari.	Mashrab g‘azallaridan yod olish. “Shoh Mashrab qissasi”ni o‘qish. So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarini o‘qish
19.	<b>19-mavzu</b> Xiva adabiy muhiti. Munis hayoti va ijodi. Ogahiy hayoti va ijodi	Xiva adabiy muhiti. Munis hayoti va ijodi. Ogahiy hayoti va ijodi	Ogahiy lirikasi	Munis va Nishotiy she’riyatining mavzu va g‘oyaviy qamrovi.	Abulg‘ozining “Shajarayi turk”, Nishotiyning “Husnu Dil” asarlarini o‘qish. Munis, Ogahiy g‘azallaridan yod olish

20.	<b>20-mavzu</b> Qo'qon xonligi adabiy muhiti	Qo'qon xonligi adabiy muhiti	Gulxaniy lirikasi va “Zarbulmasal” asari tahlili	Amiriy asarlarining ko'lami va janr xususiyatlari. Maxmur ijodi.	“Zarbulmasal” asarini o'qish. Amiriy va Gulxaniy, Maxmur, Mujrim Obid Dilshodi Barno va Anbar Otin g'azallaridan yod olish
21.	<b>21-mavzu</b> Uvaysiy adabiy merosi. Nodira adabiy merosi	Uvaysiy adabiy merosi. Nodira adabiy merosi	Nodira lirikasi	Uvaysiy lirikasi	Uvaysiy va Nodira g'azallaridan yod olish. Uvaysiyning “Shahzoda Hasan” va “Shahzoda Husayn” dostonlarini o'qish
22.	<b>22-mavzu</b> Kirish: ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot. Komil Xorazmiy (1825- 1899).	Kirish: ijtimoiy- siyosiy, madaniy- adabiy hayat. Komil Xorazmiy (1825-1899).	Komil Xorazmiy lirikasi	Xojanazar Huvaydo hayoti va ijodi.	Komil Xorazmiy g'azallaridan yod olish. Huvaydoning “Rohati dil”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazimshohiy” asarini o'qish
23.	<b>23-mavzu</b> Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) va Ahmad Tabibiy (1969-1911) ijodi	Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) va Ahmad Tabibiy (1969-1911) ijodi	Muhammad Rahimxon Feruz lirikasi	Ahmad Tabibiy ijodiy merosi	Feruz g'azallaridan yod olish. Ahmad Tabibiy “Majmuat ush- shuaro” tazkirasini o'qish
24.	<b>24-mavzu</b> Muqimiy (1850- 1903) va Furqat (1859-1909)	Muqimiy (1850- 1903) va Furqat (1859-1909)	Muqimiy lirikasi badiiyati	Furqat lirikasi	Muqimiy “Sayohatnoma”lari dan parchalar va g'azallaridan namunala yod olish. Furqat g'azallaridan yod olish
25.	<b>25-mavzu</b> Avaz O'tar va Zavqiy hayoti va ijodi	Avaz O'tar va Zavqiy hayoti va ijodi	Avaz O'tar o'g'li lirikasi	Zavqiy hajviyoti	Anbarning “Qarolar falsafasi” asarini o'qish. Avaz O'tar o'g'li, Zavqiy va Muhayyir g'azallaridan yod olish.
26.	<b>26-mavzu</b> Is'hoqxon Ibrat (1862-1937) va Karimbek Kamiy (1865 - 1922)	Is'hoqxon Ibrat (1862-1937) va Karimbek Kamiy (1865 - 1922)	Karimbek Kamiy lirikasi	Is'hoqxon Ibratning “Tarixi Farg'ona” asari	“Tarixi Farg'ona” asarini o'qish. Kamiy, Haziniy g'azallaridan yod olish. Yusuf Saryomiy va Dilshodi Barno ijodini o'rganish

### **III. Fanni o‘qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar**

**Ushbu fanni o‘zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:**

1. Mumtoz adabiyot tushunchasi, mumtoz poetika, mumtoz ijodkorlaming hayot yo‘li va ijodiy faoliyati, ularning millat va jahon madaniyati rivojiga qo‘sghan hissasi, o‘zbek davlatchiligi va ma’naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida **bilimga** ega bo‘lishi;
2. Mumtoz adabiyot bilan bog‘liq tushuncha va tamoyillar, mumtoz poetika asosları: balog‘at ilmi, ilmu aruz, ilmi bade’, mumtoz asarlarning mazmun-mohiyati, majoz tariqida yozilgan she’rlarda qo‘llanilgan ilmiy, diniy-asotiriylar va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy unsur stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, mumtoz asarlar tili, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarning o‘ziga xos jihatlari, ma’no qatlamlari, ushbu asarlarning o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq **ko‘nikmaga** ega bo‘ladi;
3. Talaba mumtoz ijodkorlarning asarlarini o‘rganish orqali ularni to‘g‘ri tahlil va talqin qila olish **malakasiga** ega bo‘lishi kerak.

### **IV. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
- muhokamalarda ishtirop etish;
- kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;
- loyiha ishini bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- muammoni hal qilish.

### **V. Kreditlarni olish uchun qo‘yiladigan talablar**

Joriy, oralig‘ va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

### **VI. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano - standart, 2018.
2. Mamatqulov M. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sirdaryo-Print, 2020.
3. Jumaxo‘ja N, Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asaring birinchi yarmi). O‘quv qo‘llanma. – T., Innovatsion ziyo, 2020.
4. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jiddlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
5. Николюкина А.Н. Литературная энциклопедия терминов и понятий. – М., 2001.
6. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004.
7. Isoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekistan, 2014.
8. Karimov N va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T., 2005.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: ma’rifat, jasorat, fidoyilik. – T.: Ma’naviyat, 2002.
4. O‘zbek adabiyoti tarixi, 5 jildlik, 1-4 jiddlar. – T.: Fan: 1977.

5. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: Sharq 2008.
6. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. – Yozuvchi, 2000.
7. Adabiyot ensiklopediyasi / Tuzuvchi: H.Boltaboyev. – T.: Mumtoz so‘z, 2015.


**Axborot manbalari:**

- 1.[www.e-adabiyot.uz](http://www.e-adabiyot.uz)
- 2.[www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
- 3.[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
- 4.[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
- 5.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 6.[www.guldu.uz](http://www.guldu.uz)

**Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

**Fan/modul uchun mas’ullar:**

**Mamatqulov M.R.** Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori 

**Normurodov O.B.** Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) 

**Taqrizchilar:**

**Jo‘raqo‘ziyev N.I.** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (PhD)

**Fayzullayeva O.X.** Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori